



HUMAN
SCIENCES.UZ

www.humansciences.uz

INSONSHUNOSLIK FANLARI JURNALI
JOURNAL OF HUMANITIES
ЖУРНАЛ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

2025

1-JILD | 1-SON

HUMANSIENCES.UZ

№ 1 (1)-2025

INSONSHUNOSLIK FANLARI JURNALI

JOURNAL OF HUMANITIES

ЖУРНАЛ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00 – TARIX FANLARI

Rajapov Mardonbek Qosimboy o'g'li
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
E-mail: mardonbekoff@gmail.com
ORCID: 0000-0002-5245-6021

Xaynazarov Baxromjon Baxtiyorovich
Tarix fanlari doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: bahrom_bek@mail.ru
ORCID: 0000-0002-1266-1557

Saidboboyev Zokirjon Abdulkarimovich
Tarix fanlari nomzodi (Ph.D.). Professor.
E-mail: zsaidboboev@yahoo.com
ORCID: 0009-0008-3960-2427

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Urdushev Xamrakul
Iqtisodiyot fanlari nomzodi. Dotsent.
E-mail: x.urdushev@gmail.com
ORCID: 0000-0003-4984-0214

Berdiyarov Baxriddin Tavasharovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: bahriddin.bfa@gmail.com
ORCID: 0000-0001-8591-6840

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: anvaravlokulovz@gamail.com
ORCID: 0000-0002-6683-8995

Norov Asror Egamberdiyevich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc).
E-mail: a.norov@ilmiy.uz

Ostonokulov Azamat Abdulkarimovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: a.ostonokulov@tsue.uz
ORCID: 0000-0003-2792-3174

Rustamova Sayyora Xatamovna
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). V.b Dotsent.
E-mail: rustamova0302@mail.ru

Shadiyev Xamid Azimovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: su9795744@gmail.com

Nasirov Egamkul Ismailovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: e.nosirov@tsue.uz
ORCID: 0000-0002-9355-1973

Kuliboev Azamat Shonazarovich
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Dotsent.
E-mail: azamatkuliboyev@gmail.com
ORCID: 0000-0002-3357-070X

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Turdiyev Bexruz Sobirovich
Falsafa fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: bekiuz0302@yahoo.com
ORCID: <https://orcid.org/0000-0003-3260-3327>

Bekbaev Rauf Rustamovich
Falsafa fanlari doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: rauf.r.bekbaev@gmail.com
ORCID: 0000-0001-5072-3379

Yusubov Jaloliddin Kadamovich
Falsafa fanlari doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: yusubovjaloliddin@gmail.com
ORCID: 0009-0003-1401-7997

Yuldashev Nurbek Normurodovich
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Katta ilmiy xodim.
O'zbekiston.
ORCID: 0000-0002-4628-8789

Eshnazarova Farida Jo'raqulovna
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent.
E-mail: faridaeshnazarova4@gmail.com
ORCID: 0009-0000-2496-4443

Parpiyev Muxammadjon Tolibovich
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent.
ORCID: 0009-0000-1869-9348

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Absalamova Gulmira Sharifovna
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
E-mail: gulmirasharifovna@gmail.com
ORCID: 0009-0005-6105-4752

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna
Filologiya fanlari nomzodi. Dotsent.
E-mail: salaxiddinovamusharraf@gmail.co
ORCID: 0000-0003-0534-5633

Ravshan Turakulovich
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Professor.
E-mail: docravshanniyazov@gmail.com
ORCID: 0000-0002-6146-1789

Sanakulov Zayniddin Ibodullayevich
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
O'zbekiston.
E-mail: z.sanakulov@cspu.uz
ORCID: 0000-0002-6952-7738

Bawetdinov Muxammeddin Kazimbekovich
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD).
E-mail: b_muxammed@karsu.uz
ORCID: 0009-0007-9826-175X

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Ixombekov Jasurbek Ilxombek o'g'li
Yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Katta o'qituvchi. E-mail: jafarbek22@mail.ru
ORCID: 0000-0002-9867-3363

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
E-mail: bahtiyor.haqberdiyev@mail.ru
ORCID: 0000-0002-2208-7827

Erkulova Feruza Melikuziyevna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
E-mail: feruzaerkulovauzb@gmail.com

Shirnazarova Zamira Allaberdiyevna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). E-mail: zamira.sh@terdpi.uz
ORCID: 0000-0001-9870-6295

Oymatova Nilufar Mirjamolovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). E-mail: nilufar.oymatova@gmail.com

Eshchanova Xolida Xudayarovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). E-mail: eshchanovaxolida@gmail.com

Karshieva Dilbar Eshpulatovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
E-mail: d.karshiyeva1986@gmail.com

Raxmatov Otabek Urinbosarovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). E-mail: rahmatov.otabek@inbox.ru
ORCID: 0000-0003-1288-3042

23.00.00 – SIYOSIY FANLAR

Turayev Abrar Saloxiddinovich
Siyosiy fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent. E-mail: ijtimoiy2017@mail.ru
ORCID: 0000-0003-1741-6857

INSONSHUNOSLIK FANLARI elektron
jurnali 2025-yil 6-iyunda 830912-sonli
guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan
o'tkazilgan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
mas'uliyati cheklangan jamiyati.

TAHRIRIYAT MANZILI:

Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik
Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron
manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

MUNDARIJA

07.00.00-TARIX FANLARI

Muxammadiyev Akmal

TOSH XOMASHYOSI MANBALARIDAN FOYDALANISHNING IJTIMOY-IQTISODIY HAMDA
MADANIY HAYOTGA TA'SIRI6-16

Turdimuratov Yangiboy

ETNOTURIZM – IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANISH OMILI 17-24

Xolmatov Shukurillo

AMERIKALIK TADQIQOTCHILAR TOMONIDAN MARKAZIY OSIYONI ARABLAR TOMONIDAN
ISTILO QILINISHINI O'RGANILISHI. TADQIQOTLAR TAHLILI 25-30

Qodirjonov Omadjon

IRRIGATSIYA VA MELIORATSIYA SOHASIDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLARNING
ANDIJON VILOYATIGA TA'SIRI 31-36

Sodiqov Abduhalil

TURKIY XALQLAR UMUMIY MAFKURASINI SHAKLLANTIRISHDA ZIYOLILARNING ROLI:
YEVROOSIYO MINTAQASIDA TARIXIY VA ZAMONAVIY KONTEKST 37-48

07.00.00-IQTISODIYOT FANLARI

Turg'unov Muxriddin, Maxammadov Diyorbek

TIJORAT BANKLARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI MOLIVAVIY TAHLIL QILISH 49-52

Гаибназарова Зумрат, Сайдалиева Мубина

ВЛИЯНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ
УЗБЕКИСТАНА: АНАЛИЗ ПРИМЕНЕНИЯ В ПРОМЫШЛЕННОСТИ, БАНКИНГЕ И
СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ 53-58

Khamraev Abdulkhofiz, Latipov Ashur

HR ANALYTICS IN INDUSTRY 4.0: FORECASTING AND MANAGING EMPLOYEE
PERFORMANCE THROUGH ARTIFICIAL INTELLIGENCE 59-62

10.00.00-FILOLOGIYA FANLARI

Salimova Gulnoza

THE ROLE OF PRAGMALINGUISTICS IN ENHANCING COMMUNICATION EFFECTIVENESS
WITHIN THE STEAM CONCEPT 63-67

13.00.00-PEDAGOGIKA FANLARI

Yavkochdiyeva Dilafruz

TA'LIM TEXNOLOGIYALARI" FANIDA "KREATOR" INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYASINI
QO'LLASH 68-75

Farsaxonova Mastura

O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA O'ZBEK XALQ ERTAKLARI, RIVOYATLARI VA BOLALAR
QO'SHIQLARI ORQALI 4K KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH 76-84

Raxmatov Otabek

SPORT FAOLIYATI MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHDA SHAXSGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM
TEXNOLOGIYALARINING AMALIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI 85-91

Xamroyev Samijon

KASBGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA SPORT TO'GARAKLARI
ORQALI TALABALARNI JISMONIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH 92-99

19.00.00-PSIXOLOGIYA FANLARI

Abduraxmonova Zuhra

XORIJ PSIXOLOGIYASIDA SANOGEN TAFAKKUR XUSUSIYATLARI, FUNKSIYALARI VA
MEZONLARINING O'RGANILISHI100-106

19.00.00-PSIXOLOGIYA FANLARI –PSYCHOLOGY SCIENCES*Article / Original Paper***XORIJ PSIXOLOGIYASIDA SANOGEN TAFAKKUR XUSUSIYATLARI, FUNKSIYALARI VA MEZONLARINING O'RGANILISHI****Abduraxmonova Zuhra Abduraxmon qizi**

"Tashkent International university of educational" universiteti, Ta'lim boshqaruvi va pedagogika kafedrasi dotsenti, psixologiya fanlari bo'yicha (PhD)

Tel: +998 909474422

Annotatsiya. Maqolada shaxsning sanogen tafakkur muammosi, uning dolzarbligi, mamlakatimiz va xorij psixologiyasida sanogen tafakkur muammosi pedagog, psixolog olimlari qarashlari, tajribasi, tadqiqotlarida sanogen tafakkurning o'ziga xos shakllari, uning asosiy elementlari hamda o'ziga xos usullarga e'tibor qaratishgan. Ilmiy adabiyotlar, ishlanmalar tahlillariga ko'ra sanogen tafakkurni rivojlanish funktsiyalari, ta'sir etuvchi omillar, mezonlari namoyon bo'lishining ijtimoiy-psixologik jixatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: shaxs, o'quvchi, pedagog, ta'lim-tarbiya, jarayon, faoliyat, ota- ona, tafakkur, sanogen tafakkur, ma'naviy, estetik, sog'lom fikr, fazilat, xususiyat, valeologik ong

STUDY OF THE FEATURES, FUNCTIONS AND CRITERIA OF SANOGENIC THINKING IN FOREIGN PSYCHOLOGY**Abdurakhmonova Zuhra Abdurakhmon qizi**

Tashkent International University of Educational

Associate Professor of the Department of Educational Management and Pedagogy, PhD in Psychology

Annotation. The article focused on the problem of sanogenic thinking of an individual, its relevance, the pedagogical problem of sanogenic thinking in the psychology of our country and abroad, the views, experiences, and researches of psychologists, the unique forms of sanogenic thinking, its main elements, and unique methods. According to the analysis of scientific literature and developments, the socio-psychological aspects of the manifestation of the functions, influencing factors, and criteria of the development of sanogenic thinking are highlighted.

Keywords: person, student, pedagogue, education, process, activity, parents, thinking, sanogenic thinking, spiritual, aesthetic, common sense, virtue, characteristic, valeological consciousness.

KIRISH. Ijtimoiy taraqqiyotning pirovard maqsadi ishlab chiqarishni mumkin bo'lgani qadar oshirish emas, balki insonlarni yaxshi yashash sharoitini yaratish, unumli mehnat qilishi, uzoq umr ko'rishi, sog'lom yashashi, ta'lim va bilim olishlari uchun imkoniyatlar yaratishdir. Bizning davrimizda har bir inson hayotining mohiyatini belgilashda ta'lim oldingi o'ringa chiqadi. Insonning dunyoqarashi shakllanishida, hayot sir-asrorlarini o'rganib olishida, hayotda o'z o'rnini topishida, xullas, individni o'zi yashaydigan jamiyatning bir bo'lagi – ma'nan va jismonan yetuk shaxs sifatida shakllanishida uning psixologik bilim olishi, tafakkuri, ongi, ruhiyati sog'lom bo'lishi juda muhim o'rin tutadi

O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-sonli farmoniga ko'ra mamlakatimiz yoshlarini tarbiyasiga alohida e'tibor qaratish, ta'lim jarayonini rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimidagi xalqaro amaliyotlaridan andoza olish va milliy davlatimiz mentalitetiga xos jihatlarini ishlab chiqish, hamda samarali mexanizmlarni joriy etish masalalari dolzarb vazifa sifatida belgilab berilgan. Asosiy masala yosh avlodni ruhan sog'lom, jismonan baquvvat, ma'nan yetuk insonlar bo'lib yetishishlarini ta'minlashga qaratilishi zamon talabi hisoblanmoqda.

Xalqaro miqiyosda insonlardagi salomatlik, ruhiy tetiklik, stressga chidamlilik xususiyatlarini oshirish bo'yicha keng ko'lamli amaliyot dasturlari, bir qancha tashkilot va uyushmalar o'z faoliyatlarini olib borishmoqda. Shular jumlasidan (NCHBHS) (National Center on Health, Behavioral Health, and Safety -salomatlik xavfsizligi va sog'lom xulq-atvor milliy markazi) – tashkilot dasturi erta bolalik davri, ta'lim jarayonida muammolar, oilalarning ijtimoiy roli, hissiy va ruhiy salomatlikni qo'llab quvvatlashga qaratilgan. Bu yordam ayniqsa bolalarni stressdan himoya qilish yoki stressga chidamliligini oshirish, kurashuvchanlik kabi tabiiy qobiliyatlarni oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek (NCHBHS) dasturi stress sabablari, ruhiy salomatlik, giyohvand moddalarni iste'mol qilish korreksiyasi, oiladagi zo'ravonlik, bolalar va boquvchisiz qolganlarning faravonligini ta'minlash kabi inson ruhiy omiliga bog'liq masalalarga ham ahamiyat qaratadi.

Bugungi globallashuv davrida psixologik-pedagogik ta'sir mexanizmlarini optimallashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Asosan pedagogik faoliyatda quyidagi yo'nalishlarga e'tibor qaratish asosida olib borilishi maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

Sanogen tafakkurning asosiy tamoyillari:

- His-tuyg'ular haqiqatini e'tirof etish - hissiy holatning fikrlash natijasi ekanini tan olish. Sanogen tafakkurning mohiyati - o'tgan tajribani konstruktiv qayta ko'rib chiqish, kundalik hayotga xizmat qiladigan samarasiz harakatlardan voz kechish, o'z-o'zini tarbiyalash;

- Axloqiy xulq-atvor va ijtimoiy madaniyat;

- Regulyativ tamoyili o'zini-o'zi kuzatishni bildiradi. Bu o'zini-o'zi kuzatish, aks ettirish, introspeksiya, birinchi navbatda, shaxs o'z imkoniyatlarini o'rganishga imkon bersa, ikkinchidan, o'z faoliyatini kuzatadi.

- O'zini-o'zi anglash prinsipi - muayyan his-tuyg'ularning paydo bo'lishiga hissa qo'shadigan aqliy odatlar va avtomatizmlarni farqlash qobiliyatini rivojlantirish, shuningdek, o'z xulq-atvorini anglash. Bu o'z-o'zini anglash jarayoni individuallikka chiqish jarayonini ta'minlaydigan prinsipdir. [10]

- Kundalik ongning ilmiy tabiati prinsipi sanogen fikrlash o'z-o'zidan paydo bo'lmasligini anglatadi, uni o'rgatish kerak: fikrlarni nazorat qilish va his-tuyg'ularni nazorat qilish imkonini beradigan aqliy qobiliyatlarni shakllantirish. [6]

S.N.Morozyuk oliy ta'lim muassasalari talabalarining shaxsiy va xarakter xususiyatlarini psixodiagnostik jihatdan tahlil qilib, "sanogen refleksiya"ni sog'lom tafakkurning tarkibiy qismi sifatida belgilaydi. Sanogen refleksiya – bu turli xil vaziyatlarda to'g'ri xulq-atvor usullarini tanlashga imkon beruvchi, insonning o'z-o'zini, hissiy kechinmalarini, fikrlari va muammolarini ob'yektiv ko'rish va baholash qobiliyati [7].

S.N.Morozyukning qarashlariga ko'ra: "...vaziyatning noaniqligiga javob beradigan, vaziyatni ta'riflash va optimal yechimlarni tanlay olish imkoniyatiga ega bo'lgan turli darajadagi

aqliy xulq-atvordir". Ruhiy holatlarda refleksivlikning maqsadi - bu turli his-tuyg'ularni boshdan kechirishda ruhiy azoblarni kamaytirish tushuniladi. Shaxsning sanogen tafakkurini rivojlantirish uchun uning ruhiy holatlarida axloqiy xulq-atvorni rivojlantirish zarur. Ta'lim muassasalarida rivojlantirish tizimlarining eng muhim strategiyalari shaxs ma'naviyati va salomatligini saqlashga xizmat qilmog'i lozim. Bunday ta'limning maqsadi har tomonlama sog'lom insonni shakllantirish bo'lishi kerak. "Jamiyatda insonning baxtli va uzoq yashashi uchun har bir insonning sog'lom xulq-atvor va pozitiv ustanovkalari shakllanishiga e'tibor qaratish lozim" [6]

O'rganilgan tadqiqot natijalari tahliliga asoslanib sanogen tafakkurni rivojlanishida shaxsning ijtimoiy motivlari ham o'z ta'sirini ko'rsatar ekan. Motiv - ma'lum bir ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq bo'lgan u yoki bu faoliyat turiga nisbatan shaxsning ichki sub'yektiv omillarga bog'liq kuchdir.

L.Bojovichning fikriga ko'ra, motiv - nafaqat tashqi ob'yektiv omillar, balki tasavvurlar, ichki fikrlar, g'oyalar, his-tuyg'ular, barcha ichki sub'yektiv omillar ko'rinishida ham talqin qilingan. [1].

Psixolog E.M.Aleksandrovskayaning fikriga ko'ra, har qanday bola yomon ishdan keyin o'zini aybdor his qilishi kerak. Bu vijdonning namoyon bo'lishidir. Uni vijdon azobidan qutqarishga harakat qilish katta xato bo'ladi. Pedagoglar umuminsoniy qadriyatlardan foydalangan holda aybdorlik kompleksini kamaytirishga harakat qilishlari kerak: bolalarga bo'lgan shartsiz mehr-muhabbat, xayrli ishlarni ma'qullashda saxiylik, rag'batlantirish va baholashda adekvat bo'lish kabilar. [1]

Litvaning tajribali psixologlaridan biri V.K.Vilyunas inson muvaffaqiyatining asosiy omillarini aniqlagan:

Birinchisi, bolaning muvaffaqiyatsizlikka uchraganda umidsizlikga tushishiga sabab bo'lsa - bu patogen fikrlash shaklidir. Bu boshqa patogen reaksiyalarni - xafagarchilik, uyat, hasad, qoniqmaslik, jur'atsizlik, umidsizlik kabi bema'niliklarni keltirib chiqaradi. [1]

Ikkinchidan, bola omadsizlikka duch kelsa, yanada kurashadi, umidni uzmaydi, ota-ona yoki o'qituvchi uning umidini payqasa, uni qo'llab-quvvatlasa, g'alabaga zamin tayyorlasa, bola omadli bo'ladi bu xolatni sanogen tafakkur xususiyatining shakllanishi deb baholagan. Ammo buning aksi ham bo'lishi mumkin. Buning oqibatlarini oldindan aytish qiyin. O'z intilishlarini chuqur anglamasdan, talaba muvaffaqiyatsizlikka kutilmagan harakatlar, "yo'qotishlar" va patogen reaksiyalar bilan munosabatda bo'lishi mumkin. Har qanday vaziyatda atrofdagi yaqin insonlarning bolaga ishonch bildirishi, rag'batlantirishi, g'amxurlik ko'rsatishi, ilxomlantirishi, e'tirof etishi, e'tibor berishi bolaning sog'lom tafakkur va sog'lom harakatlar bilan o'z ehtiyojlarini amalga oshirish ko'nikmalarini shakllanishiga asos bo'ladi.

K.V.Madsen «Motivatsiya - bu xulqqa yo'naltirilgan qo'llab-quvvatlovchi omillarning yig'indisidir» deb ta'kidlaydi. [1]

Motivga berilgan yuqoridagi ilmiy qarashlarga asoslanib motivatsiya shaxsning ijtimoiy faoliyatda sanogen tafakkurining rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Shu jumladan o'quv faoliyatida ijtimoiy ustanovkalari va ehtiyojlari, o'quv motivlari, shaxsiy qiziqishlari, hayotiy intilishlari hamda ijtimoiy xulq-atvorining sababchisi hisoblanadi. Motivatsiyani ijtimoiy psixologik xarakterga ega bo'lgan, shaxs tafakkuri, xulq-atvori, yo'nalishi va faolligiga ta'sir etuvchi psixologik stimuly majmui sifatida izohladik.

Xorij psixologik adabiyotlar tahlilidan olingan ilmiy qarashlarga ko'ra, shaxs sanogen tafakkuriga ijtimoiy motivlar ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy jamiyatda shaxslararo munosabatlarda muloqot o'rnatishga bo'lgan ehtiyoj, muayyan guruh a'zosiga aylanish, atrofdagilar bilan o'zaro muloqot o'rnatishda ta'sir doirasiga kirishish, yordam ko'rsatish va qabul qilish kabi ehtiyojlarni qamrab oladi.

Yuqorida ko'rsatilgan ijtimoiy motivlar sanogen xulq-atvorni ifoda etuvchi mezonlar sifatida aniqlangan. Ta'kidlash lozimki, ko'rsatib o'tilgan xususiyatlar ta'lim, dars jarayonida emas, ko'proq insonning hayot tajribasi va ijtimoiy faoliyatida oila muhitida shakllantiriladi.

Amerikalik olim Bouen (1913-1990) – XX-asrning boshlarida oilani himoya qilish harakatining asoschilaridan bo'lgan, ushbu harakatdan ko'zlangan maqsad - oilani alohida tadqiqotlar ob'yektiga aylantirish, shu orqali uning inson salomatligidagi benazir roldan foydalanish, hattoki, ruhan bemor bo'lganlarni davolashda oilaning imkoniyatlaridan foydalanish g'oyasini targ'ib etishdan iborat bo'lgan. B. Myurreyning fikriga ko'ra, inson o'z umrini o'tkazadigan ijtimoiy guruhlardan eng muhimi - bu oiladir. Shu bois ham har bir shaxsni o'rganish uning oilasini o'rganishdan boshlanmog'i lozim-deb ta'kidlaydi. Ammo, inson qanchalik biologik tuzilmali, hissiyotlarga boy emosional tizimga ega bo'lmasin, u sekin-asta o'z oilasi qobig'idan ajralib, shaxsiy xususiyatlarda boshqalardan o'zgacha, ajralib, differensiallashib boraveradi- deb izoh bergan. [5]

N.V.Pilning tadqiqotlari, inson umri davomida shaxsiy dinamika qonunlari hayot sinovlari va xatolari orqali takomillashib borishini ta'kidlagan. Hayotiy muammolar va qiyinchiliklarning yechimini topish insonning firla tarziga bog'liq ekanini izohlab, pozitiv (ijobiy) tafakkurni muvofaqqiyatsizlikdan ham ijobiy stimul oladigan, kungilsizliklarni tez yengishga qodir, kelajakga ishonch, muvaffaqiyatga va baxtga intilib yashash ehtiyojlari barqaror bo'lgan, omadsizlikdan omadni yarata oladigan obrazda ta'riflagan. Pozitiv inson bo'lish uchun tajribasidan olgan o'zining amaliy tavsiyalarini ham keltirib o'tgan: [8].

- ☐ -avvalo o'zingizga va iste'dodlaringizga ishonib
- ☐ -o'z qobiliyatingizni rivojlantirishga harakat qiling
- ☐ -insonlar bilan muloqotda kamtar va samimiy bo'ling
- ☐ -muvofaqqiyatga ongli ravishda ishonib,
- ☐ -tana salomatligiga jiddiy e'tibor qarating
- ☐ -o'ziga ishonch hissi esa o'zingizni amalga oshirishga va maqsadlaringizga

muvaffaqiyatli erishishga olib keladi.

☐ -hayotda juda muhim va foydali kitob tanlay oling va ichki resurslaringizni to'ldiring.

M.Djeyms sanogen fikrlashning asosini ong hozir vas hu yerni to'liq va to'g'ri idrok eta olish va tushunish qobiliyati tashkil etishini qayd etib o'tgan:

O'zini qanday tutishni yoki his qilayotganini bilmagan odam hissiy- emosional jihatdan tez charchaydi hamda o'ziga bo'lgan ishonchi yo'qoladi va bunday odam tezda ichki qarama-qarshi kuchlar o'rtasida qiyin, noqulay holatga tushadi.

Aksincha, sanogen tafakkurga ega bo'lgan inson esa, o'zining ichki hissiyotlari, xulq-atvorini, o'y-hayollarini to'g'ri boshqara oladi va nazorat qila oladi, qo'rqmaydi, uyalmaydi, aql va tana "shu yerda va hozir" tamoyiliga mos ravishda harakat qiladi. [2] Demak, "sanogen fikrlash"ni atrofdagi dunyoga e'tibor berish, hozirgi ongni idrok etish, zaruriy hukm qabul qilish va ular haqida mulohaza yuritishuvchi fikrlash tarzi sifatida baholashimiz mumkin.

G.G.Bashanayeva Sanogen tafakkurning aniqlangan funksiyalariga e'tibor qaratgan holda, bolaning shaxsiyatining quyidagi individual psixologik xususiyatlari ularni amalga oshirish imkoniyati va sifatini belgilaydigan ichki sharoitlar rolini o'ynaydi, deb taxmin qilish mantiqan to'g'ri keladi: [8].

reflekslilik, bashoratlilik, kognitiv motivatsiyaning jiddiyligi, ijtimoiy ong, idrok etish qobiliyatlari (ijtimoiy intellekt), idrok, mas'uliyat va boshqalar. Shunday qilib, sanogen tafakkurni baholashda nafaqat jamiyatda bolaning afzal ko'rgan qadriyatlarini, balki rejalashtirilgan va qo'llaniladigan usullar sifatida dunyoga bo'lgan ichki munosabatni ham o'z ichiga oladi.

Shu munosabat bilan sog'lom fikrlashni baholash tavsiya etiladi:

a) motivlar darajasida (muammoli vaziyatda tanlovga ta'sir ko'rsatgan dominant motivasion sabablar baholanadi);

b) bilim darajasida (sub'yektning o'zi haqidagi bilimlarining to'liqligi, adekvatligi, tabaqalanishi, uning oilada tutgan o'rni, qabul qilingan tanlov holatlari va omillari hamda qabul qilingan qarorning bajarilishi baholanadi);

v) his-tuyg'ular darajasida (izolyasiya qilingan his-tuyg'ular baholanishi kerak; hissiy reaksiyalar va insonning yaqinlashib kelayotgan va qilgan tanlovi, uning natijalari, shuningdek, ijtimoiy muhitning turli quyi tizimlariga va o'ziga nisbatan baholi mulohazalari haqida boshdan kechiradigan holatlar.);

d) aqliy harakat darajasida (muammoli vaziyatdan kelib chiqadigan echimni tanlash va amalga oshirishga tayyorgarlik ko'rish vositasida amalga oshiriladigan shaxsning fikrlash jarayonlarining ichki faoliyati ko'rinishlari) baholanadi.

Tadqiqot natijalarimiz tahlililariga asoslanib sanogen tafakkurni shakllantirishning quyidagi funksiyalarini taklif etamiz. Sanogen tafakkurni rivojlantirish funksiyalari va ularning mazmunini:

Sanogen tafakkur funksiyalari

☐ kommunikativlik muloqotmandlik, axborot almashish, kirishimlilik, muomala madaniyatiga ega bo'lish, muloqotga kirishuvchi tomonlarning bir-birlarini tinglashi va tushunishi;

☐ perseptivlik funksiyasi – o'zlashtirish, bir birini idrok etish, his qilish, o'zgalarning ichki dunyosiga kirish, psixik holatlarning nozik jihatlarini tushunishga xizmat qiluvchi kuzatuvchanlik fazilati;

☐ Akmeologik funksiyasi- yuqori cho'qqiga intilish, yetuklikka erishishga qaratilgan hatti-harakatlarni amalga oshirish, maqsadli faoliyat;

☐ Akseologik funksiyasi- milliy urf-odat, an'analar, qadriyatlarga sadoqat, milliy etnografik turmush tarzini ifoda etuvchi fazilatlarni shakllantirish;

☐ Sosiologik funksiyasi- Ijtimoiy ong, ijtimoiy xulq va ijtimoiy faoliyatni shakllantirishga qaratilgan ma'naviy-axloqiy tarbiya (vatanparvarlik tarbiyasi; harbiy vatanparvarlik tarbiyasi; baynalminal tarbiya, fuqarolik tarbiyasi)

☐ Valeologik funksiyasi – salomatlikga intilish, sog'lom bo'lish ma'nolarini bildirib, shaxsning individual ruhiy, jismoniy, fiziologik salomatligi, sog'lom turmush tarziga amal qilish, tibbiy ong, umrning maksimal davomiyligida ijtimoiy faollikni saqlab qolishga erishish;

☐ Refleksivlik funksiyasi – o'zini va o'zgalarni to'g'ri tushunish, hatti-harakatlari va holatlarini anglash, tahlil qilish hamda adekvat baholash;

② Kreativlik funksiyasi – ijodkorlik intellekti, noan'anaviylik, nostandart yechimlar qabul qilish, o'zgacha va takrorlanmas g'oyalar asosida noyob fikrlash qobiliyati. [9].

Shaxs ijtimoiy-psixologik mavjudot sifatida xamisha ijtimoiy muhit ta'sirida bo'ladi va ularni angelaydi. Ijtimoiy ong, ijtimoiy xulq va ijtimoiy faoliyatni shakllantirishga qaratilgan ma'naviy-axloqiy tarbiya (vatanparvarlik tarbiyasi; harbiy vatanparvarlik tarbiyasi; baynalminal tarbiya, fuqarolik tarbiyasi), ijtimoiy kiyofasini, ijtimoiy obrazini, tasavvurlarini o'rganadi. ijtimoiy kiyofasini, ijtimoiy obrazini, tasavvurlarini o'rganadi. Ijtimoiy normalar, sanksiyalar, rollar ijtimoiy mexanizmlar sifatida shaxs xulq-atvorini ma'lum ma'noda boshqarib, muvofiqlashtirib turishga yordam beradi. [3].

Sanogen tafakkurni rivojlantirish komponentlari sifatida: refleksiv, regulativ, maqsadga yo'nalganlik, muvaffaqiyat motivi, sanogen tafakkur darajasi, ijtimoiy fikr, tobelik, mustaqil, kirishimli va kurashuvchan, hayot mazmunini anglash, ijtimoiy sharoit kabilarni rivojlantirish;

Sanogen tafakkurni shakllanganlik mezonlari sifatida: shaxsning anglangan faoliyati, hissiy iroda, hissiyotlarini nazorat qilishi, muvoffaqiyatga intilish motivatsiyasi, shaxsiy rivojlanish, bilim ko'nikma egallash, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy xulq-atvor, o'zini-o'zi nazorat qilish, muloqotmandlik, jamoaviylik psixologiyasi, shaxslararo munosabatlar va ijtimoiy norma, ijtimoiy rol, ijtimoiy qonun va qoidalarni, ehtiyojlarni anglash, to'g'ri xulosa chiqarishga bog'liq mavjud ijtimoiy xulqni boshqarish mezonlari aniqlanganligini ma'lum qilamiz.

Sanogen tafakkur salbiy his-tuyg'ularni va ruhiy stresslarni yengishga yordam berar ekan, kabi ijobiy fikrlash orqali inson diqqatni jamlay olish irodalilik, o'z-o'ziga ishonch ko'nikmasiga ega bo'lib, vaziyat va jarayonlardan manfaatli va ijobiy xulosa chiqara olish imkoniyati rivojlanadi.

Hayot davomida inson nafaqat ob'yektlarni, voqea-hodisalarni hissiy jihatdan aks ettirishi, balki ular o'rtasidagi munosabatlar va aloqalarni ham tahlil qilishi kerak. Ushbu ishning dolzarbligi sanogen tafakkur inson faoliyatining ko'plab sohalariga ta'sir ko'rsatishi bilan belgilanadi. Shaxsning ichki olami va tasavvur dunyosining pozitiv bo'lishi, ijobiy va sog'lom narsalarni izlashga intilishi zamonaviy insonning asosiy ehtiyojlari bo'lgan munosib hayotni qurish, o'z shaxsiyatini rivojlantirishga qaratilganligi bilan belgilanadi.

Xulosa. Shaxsning psixologik salomatligi, himoyasi murakkab, ko'p darajali ijtimoiy, ijtimoiy-psixologik va individual-shaxsiy mexanizmlarning mavjudligida namoyon bo'lib, shaxs psixologik himoyasining shakllanishi, faoliyatining ba'zi yo'nalishlari va asosiy darajalari tadqiqi o'z navbatida uning tizim sifatida xarakterini tasavvur qilishga imkon beradi. Shaxs ongining chetdan boshqarilishi va axboriy ta'sirning yemiruvchi oqibati, ta'siriga nisbatan immunitetni shakllantirishda, psixologik qaramlik, insonning manipulyasiya etilishi, ongning nazorat qilinishi profilaktikasida eng asosiy e'tibor tanqidiy tafakkur va refleksiyani rivojlantirish, ijtimoiy xulq-atvor ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilishi lozim.

Adabiyotlar/Литература/References

1. Бандура А. Уолтер Р. Подростковая агрессия (изучение влияние воспитания и семейных отношений), М.: Апрель-Пресс: ЭКМО-Пресс, 2000. – Б.508.
2. Исаев И. Сластенин В., Е.Шиянов Психология развития человека. Развитие субъективной реальности в онтогенезе Т.: М.Академия, 2002.- С.577
3. Каримова В.М. Ижтимоий психология. Т.:Шарқ: 2012. –Б.37.

4. Каримова В.М. Саломатлик психологияси. Т.:«Янги аср авлоди». 2005. – Б.72.
5. Каримова. В.М. Оилавий ҳаёт психологияси: Ўқув қўлланмаси. - Т.. 2006. – Б.142.
6. Морозюк С.Н. Саногенная рефлексия, акцентуации характера и эффективность учебной деятельности /С.Н.Морозюк. - М., «Штыкова М.А.», 2000. – С.265.
7. Орлов Ю.М. Саногенное мышление / Сост. А.В. Ребенок, О.Ю. Орлова. Серия: Управление поведением, кн.1. - М.: Слайдинг, 2003. – С. 96-118.
8. Творогова Н.Д. Психология управления. Практикум. – М.: ГЭОТАР-Медиа, 2008. 2013. – С.125-150.
9. Abdurahmonova Z.A. Experience of scientific and theoretical interpretation of socio-psychological aspects of industrial thinking in russia and foreign countriesю WEB OF SIENCE Vol. 9 No. 3 (2021) 926-938 b.
10. 10.Abdurahmonova Z.A. A study of the features, functions and criteria of sanogenic and pathogenic thinking in psychology.// International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE) DOI:10.9756/INTJECSE/V14I6.271 ISSN: 1308-5581. WEB OF SIENCE Vol. 14. Issue 06.2022. B.2160-2164.

HUMANSIENCES.UZ***№ 1 (1)-2025*****INSONSHUNOSLIK FANLARI JURNALI****JOURNAL OF HUMANITIES****ЖУРНАЛ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

INSONSHUNOSLIK FANLARI elektron jurnali 2025-yil 6-iyunda 830912-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM" mas'uliyati cheklangan jamiyati.

TAHRIRIYAT MANZILI:

Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com